Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 1
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

SUBMADANIYATLARNING GENEZISI VA ZAMONAVIY MADANIY MAKONDAGI TRANSFORMATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Dildora Abzalovna Raximova*
Fan va texnologiyalar universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
✉ dildor757@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada submadaniyat tushunchasining nazariy mazmuni, uning tarixiy shakllanish omillari va zamonaviy madaniy makondagi transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Sanoatlashuv, urbanizatsiya, avlodlararo tafovut, ommaviy kommunikatsiya hamda raqamli platformalarning submadaniy birliklar paydo bo'lishiga ta'siri ochib berilgan. Submadaniyat va kontrmadaniyat o'rtasidagi farq, uslubning ramziy funksiyasi, guruhiy mansublik va submadaniy kapital masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar

madaniyat, submadaniyat, kontrmadaniyat, yoshlar, identiklik, uslub, submadaniy kapital, raqamli makon, globallashuv, madaniy transformatsiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743716

Kirish.

Zamonaviy jamiyat madaniy jihatdan bir xil va o'zgarmas tuzilma emas. Uning tarkibida turli yosh, kasb, hudud, qiziqish, musiqiy did, turmush tarzi va kommunikativ tajribaga ega guruhlar mavjud bo'lib, ular umumiy madaniyat doirasida o'ziga xos ma'no va xulq-atvor tizimini yaratadi. Ana shunday nisbatan mustaqil madaniy birliklar "submadaniyat" tushunchasi orqali ifodalanadi. Mazkur hodisa ayniqsa yoshlar hayotida yaqqol ko'rinadi: yosh inson jamiyatdagi o'rnini aniqlash, tengdoshlari bilan birdamlikni his qilish va o'zligini namoyon etish jarayonida muayyan guruhning tili, ramzi, musiqasi yoki tashqi uslubini qabul qilishi mumkin. Biroq submadaniyatni faqat noodatiy kiyinish yoxud ommaviy ko'ngilochar did bilan tenglashtirish uning ijtimoiy mohiyatini toraytiradi. U shaxsning identikligi, avlodlararo munosabatlar, ijtimoiy tabaqalanish va madaniy o'zgarishlarni anglashga imkon beruvchi murakkab hodisadir.

Tadqiqotning maqsadi submadaniyatlarning kelib chiqish shart-sharoitlarini aniqlash, ularning madaniy belgilarini tavsiflash hamda raqamli davrda yuz berayotgan transformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan ochib berishdan iborat. Maqolada tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Muammo "hukmron madaniyatga qarshi turish" qolipi bilangina emas, balki shaxsiy o'zini ifodalash, ijtimoiy moslashuv, ijodkorlik, kommunikativ hamjamiyat va madaniy xilma-xillik o'rtasidagi munosabat sifatida tahlil qilinadi.

"Submadaniyat" atamasi lotincha "sub" - ostki, tarkibiy qism va "cultura" - parvarishlash, tarbiyalash hamda madaniyat so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan. Mazmunan u jamiyatning umumiy qadriyatlar maydonida mavjud bo'lsa-da, o'z a'zolari uchun alohida me'yorlar, did, ramzlar, muloqot usullari va mansublik chegaralarini vujudga keltiradigan madaniy tizimni anglatadi. Submadaniyat umumiy madaniyatdan butunlay uzilmaydi: uning tili, texnologik vositalari va asosiy ijtimoiy institutlari keng jamiyatdan olinadi, ammo ular guruh tajribasiga muvofiq qayta talqin qilinadi. Shu sababli submadaniyatni "past" yoki "to'liq bo'lmagan"

madaniyat deb baholash ilmiy jihatdan noto‘g‘ri; “sub” qo‘shimchasi qiymat darajasini emas, butun va qism o‘rtasidagi strukturaviy munosabatni bildiradi.

Submadaniyatlarni ilmiy o‘rganish XX asrning birinchi yarmida yirik shaharlarning tez o‘sishi, migratsiya va yangi ijtimoiy guruhlarning shakllanishi bilan kuchaydi. Chikago sotsiologiya maktabi shaharni turli guruhlar o‘z hududi, aloqalari va norasmiy qoidalarini ishlab chiqadigan ijtimoiy laboratoriya sifatida ko‘rdi. Albert Koen yoshlar guruhlarining xulqini faqat individual og‘ish bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatib, mavjud maqom mezonlariga erisha olmagan guruhlar muqobil obro‘ va e’tirof mezonlarini yaratishini ta’kidladi [1, B. 50-65]. Bu yondashuvga ko‘ra, submadaniyatning ildizi shaxsiy injiqlikda emas, balki jamiyatdagi imkoniyat, maqom va tan olinishning notekis taqsimlanishida ham yotadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin G‘arb jamiyatlarida yoshlarning bo‘sh vaqti, xarid qobiliyati hamda ommaviy musiqa bozori kengaydi. Natijada teddiboy, mod, rokker, skinxed, xippi va pank kabi guruhlar ko‘rinadigan madaniy hodisaga aylandi. Birmingem zamonaviy madaniy tadqiqotlar markazi vakillari yoshlar submadaniyatlarini sinfiy qarama-qarshiliklar va avlod tajribasining ramziy ifodasi sifatida o‘rgandilar. Styuart Xoll va Toni Jefferson tahriridagi tadqiqotda yoshlar uslubi kundalik hayotdagi ziddiyatlarni birdaniga bartaraf etmaydigan, biroq ularni ramziy tarzda qayta ishlaydigan madaniy amaliyot sifatida izohlanadi [2, B. 33-38]. Demak, submadaniyat genezisida sanoatlashuv va urbanizatsiya bilan bir qatorda avlodlararo tafovut, sinfiy mavqe, ommaviy iste’mol va yangi kommunikatsiya vositalari ham muhim o‘rin tutgan.

Har qanday submadaniyat bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy belgilar orqali namoyon bo‘ladi. Birinchisi - guruh a’zolarini birlashtiradigan qadriyat va tasavvurlar; ikkinchisi - kiyim, soch turmagi, rang, belgi, musiqa va harakatlarda ifodalanuvchi ramziy uslub; uchinchisi - guruhga xos so‘zlar, hazil va muloqot kodlari; to‘rtinchisi - uchrashuv joylari va birgalikdagi amaliyotlar; beshinchisi esa “biz”ni “boshqalar”dan ajratadigan mansublik hissidir. Dik Hebdij pank va boshqa urushdan keyingi Britaniya yoshlar guruhlarini tahlil qilib, oddiy buyumlar submadaniy kontekstda yangi ma’no kasb etishini ko‘rsatadi. Uslub shu tariqa bezak bo‘lib qolmay, hukmron me’yorlarni savol ostiga qo‘yuvchi ramziy aloqa shakliga aylanadi [3, B. 101-112].

Submadaniyat va kontrmadaniyat tushunchalarini farqlash zarur. Submadaniyat umumiy madaniyat tarkibida o‘ziga xoslik hosil qilsa, kontrmadaniyat jamiyatdagi ustuvor qadriyat va institutlarga ongli ravishda muqobil tizim taklif etadi. Masalan, muayyan musiqa janri atrofidagi hamjamiyat alohida did va ramzlarga ega bo‘lishi mumkin, lekin bu holatning o‘zi uni kontrmadaniyatga aylantirmaydi. Qarama-qarshilikning mavjudligi, uning darajasi va yo‘nalishi konkret tarixiy sharoitda aniqlanadi. Shuning uchun har qanday noodatiy yoshlar guruhini ijtimoiy xavf yoki radikal qarshilik sifatida talqin qilish ilmiy xolislikka zid.

Submadaniyat shaxs va guruh hayotida bir vaqtning o‘zida bir necha funksiyani bajaradi. U identiklikni shakllantiradi, birdamlik va tegishlilik hissini beradi, tajriba almashish maydonini yaratadi, ijodiy qobiliyatni namoyon etishga yordam beradi hamda kundalik hayotning muqobil ma’nolarini ishlab chiqadi. Shu bilan birga, guruh ichidagi qat’iy me’yorlar individual erkinlikni cheklashi, “o‘zimiz” va “begonalar” o‘rtasidagi masofani kuchaytirishi ham mumkin. Sara Tornton “submadaniy kapital” tushunchasi orqali muayyan musiqa, joy, kiyim yoki yangilik haqida chuqur bilimga ega bo‘lish guruh ichida obro‘ manbaiga aylanishini asoslaydi [4, B. 11-14]. Demak, keng jamiyatdagi iqtisodiy va madaniy tabaqalanish singari, submadaniyat ichida ham nufuz va maqomning norasmiy iyerarxiyasi yuzaga keladi.

Submadaniy shakllarning hayot sikli ham bir xil emas. Ayrimlari qisqa muddatli moda sifatida yo‘qoladi, boshqalari esa musiqa, dizayn, sport yoki tilga ta’sir ko‘rsatib, umumiy madaniyat tarkibiga singadi. Dastlab norozilik belgisi bo‘lgan kiyim yoki musiqa keyinchalik tijorat mahsulotiga aylanishi mumkin. Hebdij bu jarayonni submadaniy belgilarni tovar shakliga o‘tkazish va ommaviy axborot vositalari orqali qayta izohlash bilan bog‘laydi [3, B. 92-99]. Natijada “chekka”da paydo bo‘lgan uslub markaziy modaga kiradi, uning dastlabki qarshilik mazmuni zaiflashadi, biroq yangi guruhlar undan boshqa ma’noda foydalanishni boshlaydi. Madaniyatning rivoji ana shunday uzluksiz o‘zlashtirish, qayta kodlash va yangilanish jarayonidir.

Internet va raqamli platformalar submadaniyatning makon, vaqt va mansublik chegaralarini tubdan o‘zgartirdi. Ilgari guruhiy birlik ko‘pincha mahalla, klub, ta’lim muassasasi yoki muayyan shahardagi uchrashuvlarga tayangan bo‘lsa, endilikda mushtarak qiziqishga ega shaxslar turli mamlakatlarda yashab ham doimiy hamjamiyat tuza oladi. Geymerlar, anime muxlislari, k-pop fandomlari, blogerlar, kospleyerlar, ekologik faol-

lar va ochiq kod dasturchilari atrofidagi tarmoqlar buning yaqqol misolidir. Manuel Kastels tarmoq jamiyatida identiklikni ma'no yaratish jarayoni deb izohlaydi va qarshilik identikligi hukmron institutlar qadrsizlantirgan subyektlar tomonidan shakllanishini ta'kidlaydi [5, B. 6-10]. Raqamli submadaniyatlarda esa identiklik matn, tasvir, video, avatar, mem va algoritmik tavsiyalar orqali doimiy ravishda namoyish etiladi.

Raqamli transformatsiya submadaniyatlarni yanada moslashuvchan va gibrid qildi. Inson bir paytning o'zida bir necha hamjamiyatga mansub bo'lishi, ulardan chiqishi yoki turli elementlarni birlashtirib individual uslub yaratishi mumkin. Endi qat'iy chegaralangan guruhdan ko'ra, vaqtinchalik "sahna", "neo-qabila", fandom yoki qiziqish tarmog'i ko'proq uchraydi. Endi Bennett zamonaviy yoshlar musiqiy didini faqat sinfga bog'langan barqaror submadaniyat modeli bilan tushuntirish cheklanganini, "neo-tribe" yondashuvi o'zgaruvchan va ko'p qatlamli mansublikni yaxshiroq ochib berishini qayd etadi [6, B. 599-606]. Bu holat submadaniyat yo'qolganini emas, uning tashkiliy shakli qat'iy guruhdan harakatchan tarmoqqa aylanganini anglatadi.

Biroq raqamli makon faqat erkinlik va ijodkorlik manbai emas. Platforma algoritmlari foydalanuvchiga o'xshash mazmundagi axborotni takroran tavsiya qilib, yopiq axborot doiralarini kuchaytirishi mumkin. Guruhiy birdamlik bunday sharoitda boshqa guruhlarni kamsitish, agressiv taqlid, kiberbulling, zararli chaqiriqlar yoki manipulyativ yetakchilarga qaramlik bilan almashishi ehtimoli mavjud. Bundan tashqari, tijorat platformalari submadaniy estetikani tezda mahsulotga aylantirib, foydalanuvchining mansublik ehtiyojini iste'molga yo'naltiradi. Shuning uchun raqamli submadaniyatlarni baholashda ikki tomonlama mezon zarur: bir tomondan, ularning ijodiy o'zini ifodalash va madaniy xilma-xillik imkoniyati; ikkinchi tomondan, shaxs daxlsizligi, ruhiy farovonlik, axborot xavfsizligi va mas'uliyatli muloqot talablari hisobga olinishi lozim.

O'zbekistonda yoshlar submadaniyatlari milliy madaniyat, oilaviy tarbiya, mahalla, ta'lim, diniy-axloqiy qarashlar, globallashuv va raqamli media ta'siri kesishgan maydonda shakllanadi. Mahalliy yoshlar jahon musiqasi, moda, sport va virtual o'yinlarga oid belgilarni shunchaki ko'chirib olmaydi; ularni ona tili, milliy hazil, mahalliy odob me'yorlari va kundalik hayot tajribasi bilan uyg'unlashtiradi. Natijada global shakl mahalliy mazmun kasb etadi. Bunday madaniy gibridlikni faqat "g'arblashuv" sifatida baholash yoshlarning faol tanlov va qayta talqin qilish qobiliyatini e'tibordan chetda qoldiradi.

Submadaniyatga nisbatan samarali ijtimoiy yondashuv taqiq yoki tamg'alashdan emas, ilmiy tushunish va muloqotdan boshlanishi kerak. Yoshning noodatiy didi avtomatik ravishda axloqiy buzilish belgisi emas. Aksincha, keskin rad etish uning ijtimoiy begonalashuvini kuchaytirishi va yopiq guruhlarga yanada qattiq bog'lanishiga olib kelishi mumkin. Oila va ta'lim muassasalarining vazifasi tashqi belgini jazolash emas, balki uning ortidagi ehtiyojni - tan olinish, do'stlik, mustaqillik, ijodkorlik yoki himoya izlash holatini anglashdir. UNESCO madaniy xilma-xillikni jamiyatlar uchun yangilanish va ijod manbai sifatida e'tirof etib, uni inson huquqlari va o'zaro hurmat bilan birgalikda himoya qilish zarurligini belgilaydi [7, B. 4-6]. Ushbu tamoyil yoshlar submadaniyatlariga ham tatbiq etilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida madaniy savodxonlik, tanqidiy fikrlash va media savodxonlikni rivojlantirish muhim. Yoshlar ramzlarning kelib chiqishi, platformalarning iqtisodiy manfaatlari, yolg'on axborot va guruhiy bosim mexanizmlarini tushunsa, submadaniy tajribaga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'ladi. Madaniy markazlar, kutubxonalar, sport va ijodiy to'garaklar esa mushtarak qiziqishlarni ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltira oladi. Submadaniyatdagi yangilikni milliy meros bilan bog'lash - masalan, zamonaviy dizayn, musiqa, raqamli san'at va kontentda tarixiy ramzlardan bilimli foydalanish - yoshlarning global ochiqligi bilan milliy o'zligini qarama-qarshi qo'ymasdan rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa. Submadaniyatlar jamiyat umumiy madaniyatining ichki xilma-xilligini ifodalovchi, muayyan guruhning qadriyatlari, ramzlari, tili, didi va amaliyotlarini birlashtiruvchi ijtimoiy-madaniy tizimdir. Ularning genezisi urbanizatsiya, ijtimoiy tabaqalanish, avlodlararo tafovut, bo'sh vaqt va iste'mol madaniyatining kengayishi, ommaviy kommunikatsiya hamda shaxsning tan olinishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq. Submadaniyat hamisha kontrmadaniyat emas: uning hukmron qadriyatlarga munosabati murosa, tanqid, ramziy qarshilik yoki oddiy estetik farqlanish shaklida bo'lishi mumkin.

Raqamli davr submadaniyatlarni hududiy guruhlardan global, gibrid va o'zgaruvchan tarmoqlarga aylantirmoqda. Ushbu jarayon ijodiy ishtirok, bilim almashish va madaniy xilma-xillik uchun yangi imkoniyatlar

yaratishi bilan birga, algoritmik yopiqlik, tijoratlashtirish, kiberbulling va guruhiy radikallashuv xavflarini ham yuzaga chiqaradi. Shu bois yoshlar submadaniyatlariga nisbatan ilmiy asoslangan, differensial va muloqotga tayangan yondashuv zarur. O‘zbekiston sharoitida asosiy vazifa submadaniy farqlarni mexanik taqiqlash emas, balki ularning ijodiy salohiyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, media savodxonlik, mas’uliyat va o‘zaro hurmat bilan uyg‘unlashtirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cohen A.K. Delinquent Boys: The Culture of the Gang. Glencoe, Illinois: The Free Press, 1955. - 198 p.

2. Hall S., Jefferson T. (eds.). Resistance Through Rituals: Youth Subcultures in Post-War Britain. London: Hutchinson, 1976. - 287 p.

3. Hebdige D. Subculture: The Meaning of Style. London: Methuen, 1979. - 195 p.

4. Thornton S. Club Cultures: Music, Media and Subcultural Capital. Cambridge: Polity Press, 1995. - 191 p.

5. Castells M. The Power of Identity. 2nd ed. Chichester: Wiley-Blackwell, 2010. - 584 p.

6. Bennett A. Subcultures or Neo-Tribes? Rethinking the Relationship between Youth, Style and Musical Taste // Sociology. 1999. Vol. 33, No. 3. P. 599-617.

7. UNESCO Universal Declaration on Cultural Diversity. Paris: UNESCO, 2001. - 12 p.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-406-son, 2016-yil 14-sentabr.

9. Rasulov R. The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 48. – С. 124-132.

10. Odilovich, Rasulov Rustambek. ”Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505.”

11. Rasulov R. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta’siri //«ACTA NUUz». – 2025. – Т. 1. – №. 1.4. 1. – С. 169-171.171.

12. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – Т. 1. – №. 3. – С. 35-39.

13. Rasulov, Rustambek. ”O ‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta’siri.” *«ACTA NUUz»* 1.1.4. 1 (2025): 169-171.

14.Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: c# winforms asosida kalkulyator modeli //Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 19. – С. 23-26.

15. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – Т. 1. – №. 3. – С. 35-39.